

## **“KATYUSHA”GA O’YNASHNI QOYILLATADIGAN OTAXON**

Oqbo’rya qishlog’ida fayzli bir xonodon bor. Hamisha mehmonlar bilan gavjum bo’ladigan ushbu xonadonda Ikkinchiji jahon urushi faxriysi, bir asrlik umr dovoniga yaqinlashayotgan To’lanboy ota Shokirov istiqomat qiladi.

Otaxonning birda qayg’uli, birda shodumon xotiralari yoshlar uchun o’ziga xos hayot maktabi. 17 yoshida qo’liga qurol olgan Oltiariq o’g’loni 1948 yili ko’ksi to’la orden-medallar bilan ota yurtga qaytdi. Enaxon aya bilan besh farzandni tarbiyaladi.

Otaxonning xotirlashicha, jangohlarda haftalab och qolib ketgan kunlari ko’p bo’lardi. Ana shunday kunlarda safdoshlar kayfiyatni ko’tarish uchun “Katyusha” qo’shig’iga raqsga tushib berishini iltimos qilishar, miriqib raqsga tushish orqali qorin g’ami unutilib, qalblar taskin topardi.

-2020 yili Toshkentda nishonlangan G’alaba bayramiga bordim. Prezidentimizning o’zlari men bilan suhabatlashib, To’lanboy ota yana bu soatni nabiralarga sovg’a qilib yubormang, deb qo’limga soat taqib qo’ydilar, - deya xonodon sohibi yo’qlab kelgan mehmonlarga qo’lidagi soatni ko’rsatdi.

Bunday e’tibor va rag’bat bu kabi tirik afsonalarimizning hayotini uzaytiruvchi eng muhim omil bo’lsa, ne ajab!

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-04 15:48:47